Presslangan achitqining kislotaliligiga va saqlashga chidamliligiga talablar qo'yiladi. Presslangan achitqini keltirish va saqlash, suyuq achitqini tayyorlash mumkin bo'lmagan hollarda novvoylikda quritilgan achitqilardan foydalaniladi.Suyuq achitqilar bevosita novvoylik korxonalarining o'zida tayyorlanadi. Ularni tayyorlashni xamir tayyorlashning birinchi bosqichi deb qabul qilish ham mumkin.Presslangan achitqini 0-4 °C haroratda saqlash tavsiya qilinadi.

Gigroskopikligini hisobga olib tuzni boshqa mahsulotlar bilan birga saqlash mumkin emas. Tuz xamirga 23-26 % konsentratsiyadagi eritma holida solinadi. Eritma tuzeritgichlarda tayyorlanadi, filtrlanadi va to'yingan eritma holatida ishlab chiqarish yig'gichlariga uzatiladi.

Yog'larni saqlash va tayyorlash, qattiq yog'lar qutilar yoki bochkalarda keltiriladi va saqlanadi. Sariyog'ni sovuq qorong'i xonada 8 °C dan yuqori bo'lmagan haroratda 3 oygacha, muzlatilgan yog'ni 12 oygacha, saqlash mumkin. Qattiq holatdagi margarinni 4-10 °S haroratda 45 sutka, 0-4°C da 60 sutka, 0 °C dan past haroratda 75 sutka saqlash mumkin.

Sut mahsulotlarini saqlash va tayyorlash sut, qaymoq, smetana 0 dan 8 °C gacha bo'lgan haroratda saqlanadi. Sut ishlatishdan oldin tirqishi 2 mm li elakdan o'tkaziladi. Quruq sut 28-30 °C haroratdagi suvda tabiiy sutdagi namlikkacha (100 g quruq sutga 700 -800 sm³suv) eritiladi. Sut zardobi avtotsisternalardan sovutish ko'ylagiga ega maxsus sig'imlarga tortib olinadi. Korxonaga keltirilgan zardobning harorati 18-20°C dan yuqori bo'lmasligi kerak, aks holda uni qisqa muddat ichida ishlatish lozim. Tajribalarning ko'rsatishicha tabiiy sut zardobini nonvoylik korxonasida bir sutkadan ortiq saqlamaslik kerak ekan.

Boshqa xom-ashyolarni saqlash va tayyorlash Povidlo, jem va murabbo non zavodlariga metall bankalarda yoki yog'och bochkalarda keltiriladi, povidlo yashiklarga joylangan ham bo'lishi mumkin. Bu mahsulotlar quruq xonalarda havoning 0-20 °C harorati va 75-80 % nisbiy namligidada saqlanadi. Bu sharoitlarda yashiklarga joylangan povidlo 6 oygacha, bochkalarga joylangan povidlo 9 oygacha saqlanishi mumkin.

Non xazm bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omil bu uning fizikaviy xususiyatlaridan, biri bo'lgan mag'izning g'ovaklilik strukturasi. Nonning hajmi qancha katta va u g'ovakroq bo'lsa, u shunchalik ovqat xazm qilish suyuqliklari bilan yaxshi ta'sirlanib, tez xazm bo'ladi. Olimlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, haqiqatdan ham g'ovakligi va uning ovqat xazm qilish

trakti fermentlari bilan xazm qilinishi orqasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Nonning hajmi va uning mag'zining g'ovaklik strukturasi ikki guruh omillardan bog'liq bo'ladi. Birinchi guruh un va xamirning gaz hosil qilish imkoniyati; ikkinchi guruh esa xamirning gaz saqlay olishini ta'minlaydigan omillar [44;59-63 b.].

Xamirning gaz hosil qilish imkoniyati ko'pincha achitqilarning faolligi va ularning sifatiga bog'liq. Agar achitqilar yaxshi bo'lsa, achitish samaradorligi vatezligiga bog'liq holda CO₂ ning hosil bo'lishi un va xamirda mavjud bo'lgan qand miqdoriga bog'liqdir. Bug'doy doni va unida 1 dan 2.5% gacha qand bo'lib, asosiy qismini saxaroza tashkil qiladi. U V- furoktofuranozidaza achitqilari ta'siri ostida juda yengil parchalanadi. Olingan furuktoza va glyukoza aralashmasi achitqilar yordamida oson achiydi.

Shunday qilib, xamir achitishning birinchi bosqichida achitqilar un qandini, ya'ni saxarozani achitadilar. Biroq xamirning achishi oxirigacha kechishi uchun past sifatli undagi, qandning bunday miqdori yetarli bo'lmaydi. Achitishning navbatdagi bosqichlarida, xamirdagi kraxmalga amilaza ta'siri ostida hosil bo'lgan maltoza asosiy rol o'ynaydi. O'z navbatida achitqilardan ajralib chiqqan maltoza fermenti ta'siri ostida maltoza ikkita alohida glyukoza malekulalariga parchalanadi. Bu molekulalar esa achitqilar yordamida qoldiqsiz achitiladi.

Agar unda nezimlar soni kam va past amilolitik faollikka ega bo'lsa, xamirda maltoza va glyukozaning miqdori yetarli bo'lmaydi. Bunda achitish jarayoni yetarli darajada faol bo'lmaydi va pishirilgan non zich mag'izli bo'lib yomon sifatni namoyon qiladi. Past faollikka ega bo'lgan V- amilazali undan kam qand hosil qiladigan xamir olinadi. Shuning uchun oqish po'stloqli non pishadi.

Xamirning gaz saqlay olish imkoniyati hammadan oldin undagi oqsillarning xususiyatiga, hamda kleykovina oqsillarning miqdor va sifatiga

bog'liqdir. Bug'doyuni xamirda ular cho'ziluvchan, elastik karkasni hosil qilib, unda xamirni ko'taradigan va kleykovinaga — burishtiradigan xususiyatni beradigan CO₂ pufakchalari to'planadi. Bu karkas xamirni achitish vaqtida asta-sekin kengayadi xamir pechkaga qo'yilganda, mag'zi ichida 97-99 °C yotgan yuqori temperatura ta'siri ostida oqsilning o'ralib koagulyastiyaga uchrash holati yuz beradi. Tayyor nonning oqsilkarkasi hosil bo'ladi va ma'lum hajmiga yetgan xamirning shakli qotib mahkamlanadi. Shuning uchun unda kleykovina miqdori yetarli darajada bo'lishi kerak.

Agar kleykovina sifati un tortish jarayonida 2.5-3 % quruq bug'doy kleykovinasi (gulyutenin oqsili) ni qo'shish usuli bilan yaxshilash mumkin bo'lsa, past sifatli unning enzym komplekslarni yaxshilash biroz murakkabdir. Buning natijasida unning nonboplik xususiyatlari, asosan oqsil proteinaz va uglevod –amilaz komplekslari yordamida belgilanishga ahamiyat berilsa, bu ikkala kompleksga ham ta'sir qiladigan universal ta'sirli un korrektorlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Un ishlab chiqarish korxonalarida bug'doy unining nonboplik xossalari oshirish yoki yaxshilash dozatorlar yordamida unga enzymlar qo'shish bilan amalga oshiriladi. Shuningdek non zavodlarida xamirga yaxshilagichlar qo'shilishi mumkin, lekin juda qimmatga tushadi. Enzim kompleksdan tashqari unga askorbin kislotasi, makkajo'xorining modifikatsiya qilingan kraxmali, gemistellyuloza va kalstiy fosfati kiradi. Shu sababdan guruch kraxmaldan qoshib non mahsulotlar tayyorlandi. Bu mahalliy xom-ashyo bo'lgan uchun u enzimlardan ancha arzon narxga tushdi. Ta'mi ham o'zgacha shirin hidga ega bo'lgan non mahsulotlar tayyorlandi. Hamda guruch hamda mosh tayyorlangan non mahsulotlari degustatsiya taqdim qilindi va yaxshi natija berishdi. Endospermning un hosil qiladigan mayda zarrachalari tirik to'qima bo'lib, unda biokimyoviy jarayonlar faol ravishda kechadi. Unda donga nisbatan tashqi muhit bilan aloqador yuza ancha katta. Shuning uchun unda kechadigan hamma biokimyoviy jarayonlarning faolligi juda yuqori. Xaridorlik

qiymati va texnologik xususiyatlari nuqtai nazaridan unni saqlashni ikki bosqichga bo'lish mumkin. Tortilgandan keyin birinchi davrda unning nonboplik xususiyati yaxshilanadi, qaysidir u erishilgan bosqichda turib, so'ngra sifati tez yomonlasha boshlaydi. Un sifatining yaxshilanish bosqichi pishib yetilishi deyiladi. Bug'doy unining pishib yetilishi bu nonboplik xususiyatlarining yaxshilanishga olib keladigan o'zgarishlarning majmui.

Rossiyalik imiy tatqiqoychilar, oddiy nonning retsepturasi un, suv, achitqi va osh tuzidan iborat. Nonning yaxshilangan navlarini ishlab chiqarishda bulardan tashqari qo'shimcha xom ashyolar (shakar, yog' va boshqalar) ham ishlatiladi. Alohida xom ashyo turlarining miqdoriy tarkibi xamir xossalari va non sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Suv xamir komponenti sifatida.

Non va qolipli non mahsulotlarining turli navlari uchun bug'doy xamirida suvning miqdori un miqdoriga nisbatan 35 -40 dan 72-75 % gacha o'zgarib turishi mumkin. Bug'doy xamiridagi suvning miqdori bir qator omillarga bog'liqdir. Non va non mahsulotlarining navi asosan xamirdagi suv miqdorini belgilovchi omildir.

Chunki har bir non mahsuloti navining namligi, ko'p hollarda uning mag'zining namligi me'yor standart tomonidan belgilab qo'yilgan. Bu esa xamirning maksimal namligini va shundan kelib chiqib 100 kg unga qo'shiladigan suv miqdorini belgilaydi [45; 105-109 b].

Unning chiqishi ham xamirdagi suv miqdoriga ta'sir qiladi. Unning chiqishi qancha yuqori bo'lsa, xamirning namligi shunchalik yuqori bo'ladi. Bu shu bilan asoslanadiki, chiqishi yuqori bo'lgan undagi don qobig'ini zarrachalari endosperm zarrachalariga qaraganda namlikni katta miqdorda bog'lab olish qobiliyatiga ega. Unning namligi ham xamirdagi suv va un nisbatiga ta'sir ko'rsatadi: un qanchalik quruq bo'lsa, qorishda shunchalik ko'p miqdorda suvni biriktirib olishi mumkin.

Shuning uchun nonning chiqish me'yori ma'lum bir bazis namlikdagi (14,5 %) un uchun belgilanadi. Yuqori va past namlikdagi undan non tayyorlanganda, uning chiqishi tegishli tarzda bazis namlikga qaytadan hisoblab chiqiladi. Ammo unning namligi 12 % dan kam bo'lgan taqdirda, un namligi 12 % ga tenglashtirib olinadi. Bug'doy xamirini tayyorlashda presslangan achitqi retsepturaga asosan, un massasiga nisbatan 0,5 dan 3 % gacha miqdorda ishlatiladi. Achitqining ko'tarish kuchi qanchalik past bo'lsa, uni xamir qorishda shunchalik ko'p miqdorda ishlatish lozim. Bijg'ish davomiyligi xamirdagi achitqining miqdoriga bog'liq bo'ladi. Xamirning yetilishini tezlashtirish uchun achitqilar sarfini ko'paytirish kerak.

Oparasiz tayyorlangan xamir 1% achitqi qo'shilganda 3,5–4 soatda bijg'isa, 3-4 % achitqi qo'shilganda 2 soat bijg'ishi yetarli. Oparali usulda oparasiz usulga nisbatan (1,5-3 %) kam miqdorda (0,5-1 %) achitqi talab qilinadi.

Xamirdagi shakar va yog' miqdori ham achitqilar miqdoriga bog'liq bo'lgan omil hisoblanadi. Xamirda shakar va yog' qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ko'p miqdorda achitqi talab qilinadi. Bu xamirdagi ko'p miqdorli shakar va yog'ning achitqilar hayot faoliyatini to'xtatuvchi ta'siri bilan tushuntiriladi.

Yuqori konsentratsiyali shakarli xamirda gaz hosil bo'lishining pasayishini, achitqi hujayralarining plazmolizi bilan, qand eritmasining ma'lum konsentrasiyalarida esa achitqi hujayralarining halok bo'lishi bilan bog'liq. Shakarning 50 g birinchi navli bug'doy uni, 60 % suv va 1 % presslangan achitqidan tayyorlangan oparasiz xamirda gaz hosil bo'lishiga ta'sirini 4-jadvalda keltirilgan. Shakarni qo'shganda suvning miqdori shakarning miqdoriga nisbatan 0,48 % ga kamaytirilgan.

Jadval №4**Shakar miqdorining xamirda gaz hosil bo'lishiga ta'siri**

Bijg'ishning davomiyligi, min	Qo'shilgan shakar (%) miqdoriga ko'ra, Xamirda gaz hosil bo'lishi (sm ³)					
	0	10	20	30	40	50
60	35	63	30	8	0	0
120	85	173	90	18	0	0
180	145	316	165	42	7	0
240	245	491	265	77	20	7
300	397	671	387	127	47	18

Katta miqdorda yog' qo'shilganda gaz hosil bo'lishining pasayishini yog'ning achitqi hujayralarini parda bilan o'rab olib, unga erigan oziqa moddalarning o'tishini to'xtatib qo'yishi bilan izohlash mumkin. Yog' miqdori qancha yuqori bo'lsa, parda qavati hujayraning hayot faoliyatini shuncha ko'p to'sib qo'yadi[29; 100 b., 31; 56-58 b.].

Yog' xamir komponenti sifatida. Bug'doy nonlari va non-bulka mahsulotlarining ayrim turlari xamiriga solinadigan yog'ning miqdori va turi ularning retsepturalarida ko'rsatilgan bo'ladi. Mamlakatimizda bug'doy unidan tayyorlangan mahsulotlar turlari uchun qabul qilingan retsepturalariga ko'ra xamirga 0 dan 20-30 % gacha miqdorda yog' solinadi.

Ko'pgina mahsulot turlari uchun margarin qo'llash ko'zda tutilgan bo'lsa, ayrim mahsulot turlari uchun o'simlik moylari va hayvon yog'idan ham foydalaniladi. Shuningdek, yurtimizda suyuq novvoylik moylari ishlab chiqarilishi ham yo'lga qo'yilmoqda.

Novvoylik yog'ida ma'lum miqdorda qattiq fazaning yoki yuqori haroratda eriydigan qattiq yog'ning bo'lishi zarurati ko'p olimlar tomonidan ta'kidlangan. Shuning uchun yangi turdagi yog' mahsulotlarini ishlab chiqish o'simlik yog'lariga qattiq yog' fazalarini kiritish bilan amalga oshirilmoqda.

Bug'doy unidan xamirni tayyorlash formulalari va parametrlari samaradorlik bilan eng yuqori daraja

Taklif etilgan xushbo'y o'simlik moylarining namunalari qo'shilgan holda quyilgan nonning sifat ko'rsatkichlari

Jadval№5

№	“Qolipli” nonning nomi	G'ovakliligi,%	G'ovaklilik tavsifi	Namlik%	Rangi	Hidi
1.	1-navli “Qolipli” non	65	Ishlab chiqilgan	38	Ochiq sariqdan pushti ranggacha	Non turiga bog'liq
2.	2-navli “Qolipli” non	65	Ishlab chiqilgan	38	Ochiq sariqdan pushti ranggacha	Non turiga bog'liq
3.	3-navli “Qolipli” non	67	Ishlab chiqilgan	32	Ochiq sariqdan pushti ranggacha	Non turiga bog'liq

1.2.2. Xamirni mahalliy xom-ashyo bilan boyitish hamda yangi xom-ashyo va uning nonga sifat ta'sir.

Mahalliy xom ashyolar jumlasiga o'simlik xom ashyolari kiradi. O'simlik xom ashyolarida biologik faol moddalarning (uglevodlar, organik kislotalar, oziqaviy tolalar, azotli, mineral va xushbo'y moddalar, vita'minlar) bo'lishi ularning oziq-ovqat shu jumladan novvoylik sanoatida ham qo'llanilishini

asoslaydi. Novvoylik sanoatida meva-rezavor va sabzavot xom ashyolaridan foydalanishni kengaytirish, ularni pasta va kukun holiga keltirib, kam chiqitli holda qayta ishlash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu mahsulotlar tarkibida uglevodlar (qandlar, sellyuloza, pektinmoddalar, gemitsellyuloza, bir ozmiqdorda kraxmal), makrovamikroelementlar (K, Na, Ca, P, Mg, Fe), vitaminlar (A, B₁, B₂, B₆, PP) mavjud[40; 416b]. Ular non, unli qandolat mahsulotlari tayyorlashda, presslangan, quritilgan va suyuq achitqilarni faollashtirishda qo'llaniladi. Inson tomonidan bijg'itilgan xamirdan non tayyorlashning ixtiro qilinishidan boshlab novvoylik rivojlangan. Ko'p asrlar davomida non uy sharoitidatayyorlab kelingan. Yirik shaharlar aholisi, ko'p sonli qo'shin va boshqalarni non bilan ta'minlash zarurati novvoylik sanoatining rivojlanishiga olib keldi. Dastlab non ishlab chiqarishning barcha jarayonlari qo'lda bajariladigan kichik novvoyxonalar tashkil qilindi. Xamir qorish, xamirni bo'laklash va non pishirish jarayonini mexanizatsiyalashtirish natijasida Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mashina va pechlar bilan jihozlangan kichik hamda yirik korxonalar tashkil topa boshladi. 1925- yilda novvoylikni tubdan qayta jihozlash, yangi korxonalar qurish, asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi mashinasozlik bazasini yaratish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Aholini non mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, texnologik jihozlardan unumli foydalanish va non sanoatiga yangi mashina va uskunalarni jalb qilish bilan bog'liq. Respublikamiz iqtisodiy mustaqilligining bugungi bosqichida korxonalarda o'rnatilgan jihozlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, ularni ishlatish muddatini uzaytirish uchun profilaktika va ta'mirlashni amalga oshirish lozim. Shu bilan birga eksirgan jihozlarni rivojlangan xorijda ishlab chiqarilgan kamharj texnika bilan almashtirishni yo'lga qo'yish bugunning ta'labidir. Kelajakda respublikamizning mashinasozlik bazasida novvoylik sanoati jihozlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish chora-tadbirlari yo'lga qo'yilmoqda. Tarmoqning asosiy vazifalari, non tayyorlash texnologiyasini mukammallashtirish, non-bulka mahsulotlari chiqarishni, texnologik yo'qotish va

sarflarni aniqlash hamda kamaytirish, yangi standartlarni ishlab chiqish, tayyor sertifikatlash hisoblanadi. Bu choralar tarmoqning texnik taraqqiyotiga, novvoylik korxonalarining ish unumini oshishiga olib keladi. Tarmoqning bundan keying rivojlanishi ham mutaxasislarning fidokorona mehnatiga bog'liq. Ular zimmasiga xom-ashyoni sifatli qabul qilib olish, saqlash va ishlab chiqarishga uzatishni ilg'or yo'nalishlarini topish, non ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining optimal rejimlarini ta'minlash, barcha bosqichlarda texnik – kimyoviy nazoratlarni yo'lga qo'yish, yo'qotish va sarflar miqdorini kamaytirish, shu bilan birga non chiqishini ko'paytirishningratsional rejalarini ishlab chiqish va amalga tadbiq qilish, fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda non sifatini oshirish choralarini, shuningdek, mahalliy xom-ashyodan foydalanib, oziqaviylik va biologik qiymati yuqori bo'lgan non-bulka mahsulotlarining yangi turlarini ishlab chiqarishdan iborat.

Kochetkova A.A tadqiqot ishida shuni keltirib o'tadiki: Insoniyat qadimdan non va kepakli, non mahsulotlarini iste'mol qilib kelgan. Shuning bilan birga, bir vaqtlari kepaklar un olishda hosil bo'lib, chiqindi hisoblanar edi. Kepakli non esa hech tayyorlanmas edi . Eng foydali non mahsulotlari esa faqat tozalangan yuqori sifatli undan tayyorlangan. Shu sababli non ishlab chiqarish, korxonasining barcha harakati non mahsulotlari oqroq va do'mboqroq bo'lishiga qaratilgan. Ammo hamma chiroyli , oq va do'mboq mahsulotlar odam organizmi uchun foydali emas. Shuning uchun bugungi kundagi mahsulotlar rafinirlangan holda nafaqat foydali,shu bilan birga zararli ham [46; 36 b].

Kuznesova N o'zining ilmiy tadqiqotlariga asoslanib shuni yozadiki: hozirgi paytda ko'pchilikni fikri, boyitilgan non bug'doy nonidan foydaliroq ekanida to'xdaydi. Boyitishga kelsak, bug'doy doni uchta elementdan tashkil topgan-yangi hayot bera oladigan navga, ko'p miqdorda shakar va kraxmal saqlovchi yadro hamda tashqi qobiqdan iborat. Qobiq donni ichini tashqi agressiv muhitdan, temperatura o'zgarishidan, namlikdan va mexanik jarohatlanishidan himoya qiladi. Unda juda ko'p foydali moddalar saqlanadi. Boyitilgan non ishlab chiqarish

bo'yicha ko'pchilik olimlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan, tadqiqotga ko'ra oziq-ovqat sanoatiga tegishli va boyitilgan non mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkin [46; 100 b].

1.2.3 Boyitilgan non tayyorlash vaqtida tanlab olinadigan ketma-ketlik jarayoni

Aksenov S.I o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida shunday deb yozadi: xamirni tayyorlash uchun oliy navli bug'doy unidan tayyorlanadi. Preslangan xamirturushi, A-vitamini maydalangan maxsuloti solinib amalga oshiriladi. Keyin tuz va suv qo'shilib aralashtiriladi. Xamir achigach porsiyani qismlarga bo'linadi va maxsus non pechlarida pishiriladi. A-vitamini maxsuloti 5-7% qo'shiladi. Bu kashfiyot yuqori sifatli boyitilgan non olishni va non ishlab chiqarishni iqtisodiy tarafdin oshiradi. Bu usulni kamchiligi yuqori ish sig'imi va jarayonni uzoq davomiyligi xisoblanadi. Taklif qilinayotgan usulga yaqinroq metod bu xamir massasiga opara qo'shish yo'li bilan aralashtirish hisoblanadi. Bunda oily navli un, achitqi va suv shu bilan birga oparani bijg'itilgan massasi aralashtiriladi. Bunga ham xamir mahsuloti va boshqa qo'shimchalar qo'shilishi mumkin [47; 36 b].

Skurixin I.M tadqiqotlarida keltirilishiga ko'ra, kepak mahsuloti sifatida grechka qobig'i ishlatiladi. Qobig' maydalanadi, suv bilan aralashtiriladi, qaynatiladi va xona haroratigacha sovutilib xamir massasiga 5-10 % gacha qo'yiladi. Bu usulni kamchilik jarayonni uzoq davomiyligi, grechka qobig'ini qaynatilish va sovutish jarayonini vaqt olishi. Oldingi usul bilan boyitilgan tarkibli nonni saqlashda yuqori sifati va iste'molchilik xususiyati saqlanib qolgan [58].

Voronej Davlat Universiteti olimi Ponomareva E.I o'zining tadqiqot ishida aytib o'tishicha dag'al maydalangan kepak unidan tayyorlangan non mahsulotlari, oziq-ovqat sanoatiga, asosan non maxsulotlari ishlab chiqarishga ta'luqli. Non tayyorlashni funksional usuli quritilgan shipovnik, topinamburlarni un tarkibiga qo'shishdan, iboratligini ko'rsatib bergan. Xamir aralashtirish paytida quritilgan mevalarni dezintegratorida bir biridan alohida maydalanib suspenziya tayyorlanib qo'shilishini isbotlagan [49; 224 b].

Fyodorova R.A tadqiqotlarida keltirilishiga ko'ra parxezbob kepakli non tayyorlashni istiqbolli tajribalardan quyidagi ma'lumotlar o'rganilgan. Xamir tayyorlash usullari, kashfiyot non mahsulotlari sanoatiga kiradi, xamirni tayyorlash paytida unga soya suti 10% miqdorda qo'shiladi. Soya sutini bijg'itish 32-35 C haroratda 18 soat davomida va 75-80 % namlik 70-75°C haroratda titrlanayotgan kislotalikka yetguncha bijg'itiladi. Bu usulda tayyorlangan non yuqori biologik parxezbob xususiyatlarni o'ziga qamragan. Bu usul yana nonni tayyorlanish muddatini qisqartiradi va saqlash muddatini oshiradi. Bug'doy unidan non tayyorlashni noan'anaviy usullari mavjud. Bu usullar non tarkibiga vitamin va minerallar, soya va goroxdan olingan oqsil konsentratlari, qo'ziqorin asosidagi maxsus oqsillar, B1, B2 vitaminlar bilan boyitilgan don mahsulotlari, kalsiy va sut kislotasi, laminariya suv o'simligidan kukunlarni qo'shishdan iboratligini tushuntirib bergan [50; 111 b].

1.2.4. Boyitilgan non sifati va ozuqaviy xususiyatlari

Muravitskaya L.V tadqiqot ishida shunday deydi: non ishlab chiqarish jarayonida oq non uchun faqat don yadrosi ishlatiladi, tashqi qobiq esa yo'qotiladi, shuni natijasida un ko'p miqdorda foyda ozuqa moddalarini yo'qotadi. Shunday qilib, donni tozalash qanchalik sifatli bo'lsa, shunda unda foydali elementlar kam bo'ladi. Mutaxassislar hisobi bo'yicha unni yaxshilab tozalash natijasida 70% gacha foydali moddalar va 75% gacha vitaminlar yo'qotiladi. Mazali va do'mboq oq nonini istemol qilib, yetarlicha miqdorda foydali ozuqa moddalarini olmayotganimizga ishonish qiyin. SHuning uchun ham dunyodagi har bir gastrentrolog, bugungi kunda kepak noni organizm uchun qanchalik foydali vitamin va minerallarga boy mahsulotligini aytadi. Baholanki biz o'zimizni o'zimiz shu qadar foydali mahsulotdan chetlab qo'yganmiz [61; 102 b].

Puchkova L.I o'zining izlanishlari asosida avtoritet meditsina markazlarida bir qator tajribalar o'tkazib kepak noni hususiyatlari haqida ijobiy xulosalar chiqargan. Masalan, shu ma'lum bo'ldiki, doimiy uzluksiz kepak noni istemol qilinganda appetitni yo'qotib ichak faoliyati mikroflorasini ishini normallashtiradi,

to'yinganlik xissini beradi, oshqozon–ichak faoliyatini butkul yaxshilaydi. Bundan tashqari kepak nonida mavjud bo'lgan foydali moddalar organizmdan toksik va radiofaol moddalarni tabiiy yo'l bilan chiqadi, natijada bunday nonni iste'mol qilgan odamda immun sistemasi bo'lganda va organizmda temir miqdori ko'payadi. Agar kuniga kepak nonidan 15 gramga iste'mol qilinsa, organizmni temir miqdori bilan to'liq to'yintirsa bo'ladi. Boyitilgan noni noto'g'ri modda almashinuvi va semizlik, qandli diabet, yurak faoliyati kasalliklari bilan betob odamlarga juda foydali [62; 136 b].

Marx A.T tadqiqotlari asosida shuni ta'kidlaydi: "Non – hamma narsaga bosh"–degan xalq naqli bilan rozi bo'lmaslikni iloji yo'q. Boyitilgan nonga kelsa –u non sog'liq noni. Boyitilgan noni hatto hech qanday kasallikka chalinmagan odamlarni ham ovqatlanish ratsioniga kiritilgan bo'lishi shart. Bu to'g'ri, nega bir necha kasallikka chalinishimizni kutishimiz kerak, boyitilgan noni iste'mol qilish uchun. Kasallikni uzoq muddat davolagandan uni oldini olgan maqsadga muvofiq. Boyitilgan bo'lgan non mahsulotlari esa shuni amaliyoti hisoblanadi. Vitaminga boyitilgan noni mahsulotlari hali qadim davrlarda o'z sifati va foydali elementlari bilan mashhur bo'lgan. Bunga misol qilib bir voqeani eslash mumkin, revolyutsiyagacha Rossiya qurolli kuchlarining bir bo'limida, bir vaqtning o'zida deyarli barcha ofitserlar kasalga chalindi, askarlar esa sog'lom edi. Tekshirishlardan keyin aniqlanishicha, ofitserlar oily navdagi nonni, askarlar esa dag'al maydalangan kepak nonini iste'mol qilishgan [63; 36-39 b].

Salnikova L.K tadqiqotlarida shuni ta'kidlab o'tadiki, kepak non- sog'liq uchun foydaliligini aniqlash uchun kepak nima ekanini va nega rafinirlangan mahsulotlar foydasiz, hatto zarar ekanini isbotlashga harakat qilamiz. Buning uchun kepak nima ekanini bilishda, biologiyaga murojaat qilamiz. Hammamiz bug'doy doni qanday ko'rinishga ega ekanini bilamiz. U uch qismdan uch elementdan tashkil topgan. Novda – kichkina vitaminli bomba, yadro- bo'lg'usu o'simlik uchun ozuqa moddalarini shakar va kraxmal saqlaydi, tashqi qobiq- don terisi, temperatura, tashqi muhit ta'siridan himoya [64].

Kafka I.V tadqiqot ishida shuni ta'kidlab o'tadiki, bug'doy novdasi birinchi bo'lib o'simlikka hayot baxsh etadi, buning uchun unda cheksiz miqdorda biologik quvvat, katta kuch mavjud. Shundagina don bir kun ichida o'sib chiqadi. Shuning uchun ham unda muhim B va E guruhi vitaminlari va mikroelementlari mavjud. Donning qo'pol qobigi ham selluloza lignin (erimaydigan tola) va pektin (eriydigan tola) kabi foydali moddalarga boy. Ammo oq un ishlab chiqarishga ketadigan donning yagona qismi bu endosperli (don yadrosi), oqsil, shakar va kraxmalga boy, shuning uchun ham maydalash jarayonida don ko'p miqdorda foydali ozuqa moddalarini yo'qotadi [65; 96 b].

Neonsova Z.S o'zining izlanishlari asosida shunday deydi: donni qanchalik maydalash jarayoni nozik va sifatli bo'lsa, shunchalik unda vitamin, mikroelementlar kam bo'ladi, bunday maydalash natijasida un yo'qatadigan vitaminlarni hisoblab chiqishgan: Vitaminlar B1-86%, vitamin-B2-70%, B3-80%, B6-60%, folik kislota-70%, temir-84%, kalsiy-50%, fosfor-78%, mis-75%, magniy-72%, marganes-71%, rux-71%, xrom-87%, xujayralar-68% [66; 100 b].

Atamuratova T.I o'zining tadqiqot ishida asosan quyidagilarni ta'kidlab o'tgan, don qobig'ida ko'p miqdorda vitamin B6(tinchlik vitamini), vitamin B12, gluin kislota, riboflavin (markaziy nerv tizimi uchun kerak bo'lgan organik modda) tiamin (eng asosiy vitamin B1 kepaklarda saqlanadi), va vitamin C (xammaga ma'lum asqarbin kislota) kam miqdorda saqlaganini aniqlaganlar. Kepakli non qora nonga nisbatan xam vitaminlarni ko'proq saqlaydi. Unda vitamin B1 tiamin shaklida, vitamin D, vitamin PP (nikotin kislota – nerv tizimi, jigar va qon tomiriga zarur) lipomin kislota yoki lopomin (boshqacha aytganda vitamin H, energetik korrektor sifatida jigar va yurak faoliyatini yaxshilashda xizmat qiladi) [67; 69 b].

Nemsova Z.S o'zining ilmiy tadqiqotlariga asoslanib shuni yozadiki, eng asosiysi—to'liq donda saqlanadigan vitaminlar va mikroelementlar dorixonadagi preparatlardan farqi shuki, ular qabul qilib doza oshib ketishi kuzatilmaydi, chunki organizmni o'zi chiqarib tashlash xususiyatiga ega. Demak “kerakmas” kepaklarni tashlab yuborib yoki hayvonlarga berib biz shu bilan birga tabiiy vitamin va

mikroelementlarni tashlab yuboramiz. Kepaklarni foydasi haqida ko'pchilik tajribalar ko'rsatdi. Qonda saqlanuvchi kepak zararli moddalarni va toksinlarni yutadi va organizmdan tabiiy chiqishini ta'minlaydi. [68; 39 b].

Lisovenko A.T o'z ilmiy tadqiqot ishlarida shunday deydi, kepakli non tozalovchi xususiyatga ega, shuning uchun ham buyrak, jigar va o'tkir revmotizm kasalliklarida muntazam istemol qilish lozim. Kepaklarni eng asosiy afzalligi shuki, uni tarkibida ozuqa tolalarining ko'p miqdorda mavjudligi. Bu tolalar ichak faoliyatini normallashtiradi, yo'g'on ichak mikroflorasini yaxshilaydi, qonda qand miqdorini kamaytiradi va organizmdan ortiqcha xolesterinni chiqaradi. Ozuqa tolalari xolesterinni aterogen faollikka ega bo'lgan ichak o't kislotasi bog'lash yo'li bilan kamaytiradi, shuning uchun kepakli non ateroskleroz kasalligi amaliyotida qo'llaniladi. Kepakli non yana qand diabetida ham foydali, u kraxmal parchalanishini sekinlashtiradi va boshqa maxsulotlarni glikemik indeksini pasaytiradi [69; 70 b].

Zolin V.M ta'kidlab o'tadiki, kepaklarni yana bir boshqa xususiyati bu modda almashinuvini nazorat qilish. Klechatka yog'ni parchalash xususiyatiga ega emas, ammo ortiqcha vazn yig'ilishi sababiga ta'siri bor bu esa o'z navbatida organizmda almashinish jarayonini buzulishiga to'sqinlik qilib, sezilarli natija beradi. [70; 80 b].

Golunova L.E o'zining tadqiqot ishida aytib o'tishicha dag'al maydalangan elanmagan undan yopilgan non onkologik kasallarga, ayniqsa ko'krak saratoni va fibrazio-kistali mastopatiyada juda foydali. Kepaklar –bu rux, bu element esa aqliy mehnat qiladigan insonlarga zarur. Eng foydali va yaxshi non deb o'sib ketgan dondan (solod) qilingan undan yopilgan solodli non hisoblanadi. Bug'doyni o'sib ketgan donlarida vitamin E miqdori oshib ketadi. "B" guruxi vitaminlari esa olti marta, organizmga zarur bo'lgan mikroelementlar miqdori xam oshadi. Oliy navli undan tayyorlangan non, konditer mahsulotlari va shakar B guruxi vitaminlariga organizmda extiyojni oshiradi, shuni natijasida gipovitaminoz rivojlanadi. Asosan kichgina bolalar rafinirlangan maxsulotlarni chaynamasdan

iste'mol qiladilar, natijada 90% bolada 5-6 yoshga yetgach karies rivojlanadi [71;96 b].

Duptsov G.G tadqiqotlarida keltirilishiga ko'ra, ko'pgina davlatlarda oily navli unga 25% gacha kepak qo'shib maxsus non navlari tayyorlanadi. "Sog'lom" non navlari dunyo bo'yicha 20 tadan oshiq. Rossiya davlatida esa nonlar navi 2-3 ta dag'al maydalangan undan tayyorlangan non boshqa assortimentdagi nonlar oliy yoki birinchi navli [72;36 b].

Lovacheva G.N tadqiqot ishlarida shunday deydi nonni inson rasionida paydo bo'lgan sanasini xech kim aniq ayta olmaydi. Ko'pchilik olimlar non bundan 15000 yil oldin paydo bo'lgan deb ta'kidlaydi. Ovqatlanish istagida qadimgi odamlar o'simliklarni donlarini o'zini yeyishgan, vaqt o'tgach uni maydalashni, atalalar pishirishni va nihoyat non qilishni o'rganishgan. Arxeologlar fikricha pishirilgan non-atalaning bir qismi issiq toshlarga to'kilib pishib kashf etilgan deb taxmin qiladilar [73; 45 b].

Antonov A.P tadqiqotlari asosida shuni ta'kidlaydiki, ko'p yillar davomida kepakli non past navli non xisoblangan. Hozirgi davrda esa zamonaviy ishlab chiqarishlar boyitilgan nonni har xil navlarini: bug'doyli, solodli, kishmishli yoki maxsus boyitilgan nonlarni tayyorlab do'konlarimiz rastalarini to'ldirib qo'yganlar. Haqiqiy boyitilgan nonni kalbakisidan ajratish oson: kesganda u kulrangli, kepaklar esa sariq va ochiq-jigarrang bo'lib ko'rinib turadi. Haqiqiy kepak non oq nonlar saqlamagan hushbo'y hid mazali o'zgacha ta'mga ega [74; 56 b].

Krestyaninova N.V o'zining tadqiqot ishida aytib o'tishicha "Ufim non zavodi" ochiq aksionerlik jamiyatining "Kalininskiy" kepakli non tayyorlash usuli bo'yicha ixtirosi non ishlab chiqarish sanoatiga, asosan profilaktik ovqatlanish uchun bug'doy kepaklari bilan non ishlab chiqarish sanoatiga tegishli bo'lib, bu usulda dag'al ishlov berilgan javdar uni va KMKZ F-27 ni qo'llash bilan ikki fazada aniqlangan retseptura va texnologiyaga amal qilgan holda zakvaska tayyorlash nazarda tutiladi. So'ngra elangan javdar unidan bug'doy kepaklari hamda javdar uni va suvdan tayyorlangan qaynatma qo'shib, opara tayyorlanadi.

Bunda aniqlangan retseptura va texnologiyadan foydalaniladi: boshlang'ich harorat $28 - 32^{\circ}\text{C}$, bijg'itish davomiyligi 80 – 120 minut, kislotalilik $6,5 - 8^{\circ}\text{C}$ va namlik 46 – 48 %. Xamirni tayyorlash komponentlarning aniqlangan nisbatdagi miqdorida $28 - 32^{\circ}\text{C}$ li boshlang'ich haroratda, 50 – 60 minut bijg'ish davomiyligi va kislotalilik $6,5^{\circ}\text{H}$ da amalga oshiriladi. So'ngra bo'laklash, tindirish va nonni pishirish jarayonlari amalga oshiriladi. Bu usul oparaning bijg'ish davomiyligini 80 – 120 minutga qisqartirish imkonini beradi [75; 96 b].

Krutskix S.N o'zining izlanishlari asosida shunday deydi: "Rus" noni va uni tayyorlash usuli ma'lum bug'doy uni, kepak, margarin, shakar va tuz; "Kepakli" noni va uni tayyorlash usuli (GOST 28808-90) birinchi navli bug'doy unidan, bug'doy kepaklari, quruq sut, kungaboqar moyi, suv, achitqi va tuzdan tayyorlanadi [76; 45 b].

Rempel L.I tadqiqotlarida shuni ta'kidlab o'tadiki, boyitilgan non tayyorlashda kaloriyalikni kamaytirish maqsadida bug'doy uni o'rniga javdar uni ishlatiladi. Biroq retsepturada margarinning bo'lishi hisobiga non yetarli darajada kaloriyali bo'lib qoladi. Bundan tashqari an'anaviy quyuq zakvaskadan foydalanish non zarur bo'lgan ta'm sifatini ta'minlamaydi [77; 56 b].

Pashenko L.P tadqiqotlari natijasida taklif qilinayotgan usuliga ko'ra kepakli nonni konsentrlangan sutli nordon zakvaska (KSNZ)da tayyorlash usuli uch bosqichli xamir tayyorlashni (zakvaska-opara-xamir), bunda KSNZ ni qo'llash bilan zakvaska dag'al ishlov berilgan javdar unida (5 kg) amalga oshiriladi; opara – birinchi navli un (45 kg) dag'al ishlov berilgan javdar uni (10 kg) va presslangan non achitqisi 1,5 kg qo'shish bilan tayyorlanadi; xamir - birinchi navli un (30 kg), dietik bug'doy kepagi (10 kg) va oshxona margarini (1 kg) qo'shib tayyorlanadi deb aytadi [78; 96 b].

1.2.5. Boyitilgan non maxsulotlarining dietik va profilaktik navlarini tayyorlashning bosqichlari

Dosenko V.F tadqiqot ishida shuni keltirib o'tadiki, non-bulka mahsulotlarining dietik va profilaktik navlarini tayyorlashning retsepturalari va texnologik instruktsiyalari yig'masi, prototip usulning kamchiligi shundaki, xamir tayyorlashning so'nggi bosqichida kepakni qo'shish bilan bog'liq bo'lgan texnologiyani bilmaslik, bunda bir xil massali xamir olish uchun ingredientlarning to'liq aralashishiga erishish qiyin.

Taklif qilinayotgan usul quyidagi jarayonlar bosqichlarini o'z ichiga oladi:

1. KSNZ, dag'al ishlov berilgan javdar uni va suvdan zakvaska tayyorlash.
2. 1 bo'yicha olingan zakvaska, elangan javdar uni , bug'doy kepaklari, elangan javdar unidan qaynatma, achitqi va suvdan opara tayyorlash.
3. 2 bo'yicha tayyorlangan opara, ikkinchi navli bug'doy uni, tuz va suvdan xamir tayyorlash.
4. Xamirni bo'laklash va tindirish.
5. Nonni pishirish.[78; 56 b].

Koryachkina S.Ya ta'kidlab o'tadiki, vitaminlashtirilgan non tayyorlash uchun oziq-ovqat sanoatiga tegishli va funksional maqsadlardagi non bulka mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida foydalanish mumkin. Vitaminlashtirilgan non tayyorlash uchun tarkib dag'al ishlov berilgan javdar uni, bug'doy kepagi, tuz, inulin kukuni "Raftilin-NR" 5%, stevi quruq yaprog'i 0,6% va yantar kislota 0,08% (un massasiga nisbatan) dan iborat. Berilgan tarkib ozuqaviy tolalar miqdorini oshirish, tayyor mahsulotning energetik qimmatini kamaytirish, mahsulotga funksional xususiyat berish, non tayyorlash vaqtini kamaytirish, tayyor mahsulot mag'izining struktur-mexanik xususiyatlarini yaxshilash imkoniyatini beradi [79; 66 b].

Doroxovich A.N o'z ilmiy tadqiqot ishlarida shunday deydi: inson tomonidan bijg'itilgan xamirdan non tayyorlashning ixtiro qilinishidan boshlab novvoylik rivojlangan. Ko'p asrlar davomida non uy sharoitida tayyorlab kelingan.

Yirik shaharlar aholisi ,ko'p sonli qo'shin va boshqalarni non bilan ta'minlash zarurati novvoylik sanoatining rivojlanishiga olib keldi. Dastlab non ishlab chiqarishning barcha jarayonlari qo'lda bajariladigan kichik novvoyxonalar tashkil qilindi. Xamir qorish, xamirni bo'laklash va non pishirish jarayonini mexanizatsiyalashtirish natijasida Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mashina va pechlar bilan jihozlangan kichik hamda yirik korxonalar tashkil topa boshladi [80; 100 b].

Auerman L.Ya o'zining ilmiy tadqiqotlariga asoslanib shunday yozadiki, yangi pishgan nonda uning barcha xususiyatlari:nafisligi, ta'mi va yoqimli hidi yaqqol namoyon bo'ladi.Bunday non ishtaha bilan yeyiladi,ovqat hazm bo'lishida oshqozon shirasi ta'siriga tez uchraydi va yaxshi hazm bo'ladi. Shuning uchun keyingi vaqtda respublikamiz tuman va shaharlarida xorijdagi "Vinkler", "Ekmasan"firmalarning mashina va pechlari bilan jihozlangan mexanizatsiyalashtirilgan kichik novvoyxonalar bunyod etildi. Bu novvoyxonalar keng asortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lib, aholiga issiq non yetkazib beruvchi do'kon bilan ham ta'minlangan.Bunday zamonaviy korxonalarning soni yildan yilga ortib bormoqda [81; 93 b].

Vasiyev M.G.o'zining izlanishlari asosida shunday deydi, namunaviy laboratoriyaviy tekshiruv nonning pishirish sifatini baholash uchun 100 ballik sistema ishlab chiqilgan. Sistema non sifatini, barcha ko'rsatgichlarining baholash asosida, ballar bilan ifodalash imkoniyatini beradi. Bu esa bug'doy unining novvoylik xossalarini baholashda, non sifatini yaxshilash uchun tavsiya etiladigan texnologik tadbirlarni samaradorligini aniqlashda yordam beradi [82].

Ostrovskiy A.I o'zining tadqiqot ishida asosan quyidagilarni ta'kidlab o'tgan:Delbryuk bakteriyalari hosil qilgan sut kislotasi biyg'itilayotgan qaynatmadagi keraksiz bo'lgan barcha kislota hosil qiluvchi mikroflora faoliyatini to'xtatadi. Shundan kelib chiqib, suyuq achitqilar tayyorlashda oziqa muhiti sifatida oldindan Delbryuk termofill bakteriyalari yordamida

bijg'itilgan un qaynatmasidan foydalanishni tavsiya etdi .Shu munosabat bilan ikki fazani alohida tayyorlash va kiritish tavsiya etilgandi: birinchi bosqichda termofill sut kislotasi bakteriyalari tomonidan 48...54 °C haroratda bijg'itiladigan qaynatmani tayyorlash va ikkinchi bosqichda – 28...30°C haroratgacha sovutilgan qaynatmada achitqilarni ko'paytirib suyuq achitqini tayyorlash [83].

Xromeenkov V.M tadqiqotlarida keltirilishiga ko'ra:xamir qorishda qo'llaniladigan texnologik jixozlarga,dozalash apparatlari va xamir qorish mashinalari kiradi. Dozalash jixozlari qo'llanilishiga qarab sochiluvchan (un)dozatorlari, yarim tayyor mahsulotlar dozatorlari va xamirning suyuq komponentlari dozatorlariga bo'linadi. Aralashmalarni dozalashning aniqligi ayniqsa uzluksiz xamir tayyorlash katta ahamiyatga egadir.Agar uzlukli usulda xamir qorishda yetishmayotgan komponentlarni qo'shib aralashtirib, xatoni to'g'rilash mumkin bo'lsa ,uzluksiz oqimli usulda qorilgan xamirni tuzatib bo'lmaydi.Porsion usulda yarim tayyor mahsulotlarni qorishda un MD-100 yoki MD-200 avtouno'lchagichlar yordamida dozalanadi [84; 102 b].

Siganova T.B o'zining tadqiqot ishida aytib o'tishicha:xamirning suyuq komponentlarini dozalash uchun xajmiy prinsipga ko'ra ishlaydigan turli dozatorlar qo'llaniladi. Uzluksiz usulda xamir qorishda, suyuq konsistensiyali yarim tayyor mahsulotlar jo'mraklari yoki cho'michli dozatorlar yordamida dozalanadi. Quyuq konsistensiyali yarim tayyor mahsulotlar, uzluksiz usulda xamir tayyorlashda, ularni tashuvchi quvurga o'rnatilgan shiber yordamida tozalanadi. Quyuq massalarni dozalash uchun mo'ljallangan barabanli yoki balli dozatorlar katta aniqlik bilan ishlaydi.Porsion usulda xamir tayyorlashda suyuq komponentlar xajmi bo'yicha :ASB-20- tuz o'lchovchi, AVB-100 va AVB-200-suv o'lchovchi avtomatik baklar yordamida o'lchanishi mumkin. Massasiga asoslanib o'lchash uchun mo'ljallangan, 5tagacha komponentni dozalovchi, VNIIXP-04A dozalash stansiyasi keng tarqalgan [85].

Antipov S.T ta'kidlab o'tadiki xamir qorish jixozining tuzilishiga qarab xamir qorish davriy va uzluksiz usullarga bo'linadi. Davriy ishlovchi xamir qorish mashinalari ma'lum vaqt oralig'ida alohida xamir porsiyalarini qoriydi. Porsion (davriy) usulda tayyorlangan xamirda kislotalilik, namlik va boshqa ko'rsatgichlar qiymatidan chetga chiqishdan qutilib bo'lmagan bir paytda, uzluksiz usulda xamir tayyorlashda xamir parametrlari va unda kechayotgan jarayonlarni bir zaylda saqlab turishning imkoniyati mavjud. Shu bilan birga porsion usulda xamir tayyorlash katta texnologik ixchamligi bilan ajralib turadi. Bu usulda texnologik tartibni boshqarish, xamir qorish va tayyorlashdagi xatolarni tuzatish ancha oson. Ikki smenali ish tartibi ta'minlanib, bir turdagi maxsulot ishlab chiqarishdan ikkinchi turdagi maxsulot ishlab chiqarishga oson o'tiladi. Pechlarning quvvati kichik bo'lganda yoki bitta ishlab chiqarish jixozlari qatorida keng turdagi maxsulotlar ishlab chiqarishda, porsion usul qulay hisoblanadi. Nonvoylik korxonalarida qo'llaniladigan davriy ishlaydigan xamir qorish mashinalari almashinadigan (yuradigan) dejalarga ega bo'lib, o'zining universialligi tufayli juda keng tarqalgan [86; 156 b].

1.2.6. Turli konstruksiyali xamir qorish mashinalarining ishlatilishi

Lezenko G.A o'z ilmiy tadqiqot ishlarida shunday deydi: yarim tayyor maxsulotlarni qorish va bijg'ish maxsus sig'imlarda (dejalarda) amalga oshiriladi. Dejalarda xamir qorish uchun qorish mashinalariga yurgizib keltiriladi, keyin esa bijg'ish kameralariga olib boriladi. Ular unning turiga reseptura tarkibiga va mahsulot navi xususiyatiga qarab xamirga turlicha mexanik ta'sir ko'rsatadi. Xamir qoruvchi mashinalarning ish sifati organoleptik usulda va tayyor maxsulotlarning sifat ko'rsatgichlariga qarab aniqlanadi. Uzluksiz ishlovchi mashinalarda qorish idishiga xom ashyoni dozalash, xamirni qorish va bo'shatish uzluksiz usulda olib boriladi. Sanoatda turli konstruksiyasiga ega uzluksiz ishlaydigan qorish mashinalari ishlatilmoqda. Uzluksiz usulda xamir qorilgan paytda mehnat unumdorligi ortadi va uning sharoitlari yengillashadi [87; 50 b].

1.2.7.Xamirni mahalliy xom-ashyo bilan boyitish hamda yangi xom-ashyo va uning nonga sifat ta'sir.

Mahalliy xom ashyolar jumlasiga o'simlik xom ashyolari kiradi. O'simlik xom ashyolarida biologik faol moddalarning (uglevodlar, organik kislotalar, oziqaviy tolalar, azotli, mineral va xushbo'y moddalar, vita'minlar) bo'lishi ularning oziq-ovqat shu jumladan novvoylik sanoatida ham qo'llanilishini asoslaydi. Novvoylik sanoatida meva-rezavor va sabzavot xom ashyolaridan foydalanishni kengaytirish, ularni pasta va kukun holiga keltirib, kam chiqitli holda qayta ishlash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu mahsulotlar tarkibida uglevodlar (qandlar, sellyuloza, pektinmoddalar, gemitsellyuloza, bir ozmiqdorda kraxmal), makrovamikroelementlar (K, Na, Ca, P, Mg, Fe), vitaminlar (A, B₁, B₂, B₆, PP) mavjud. [55] Ular non, unli qandolat mahsulotlari tayyorlashda, presslangan, quritilgan va suyuq achitqilarni faollashtirishda qo'llaniladi. Qovoq mevasi tarkibiga uglevodlar, azotli va mineral birikmalar, organik kislotalar, vitaminlar kiruvchi 8-10 % quruq moddalarga ega. Quruq moddalarning asosiy massasini (10 % gacha) qandlar tashkil qiladi. Qovoqning qandlari asosan saxarozadan, kamroq miqdorda glyukoza va fruktozadan iborat. Kraxmalning miqdori 0,7 dan 3,44 % gacha bo'lgan keng oraliqda o'zgarib turadi. Uning tarkibidagi amiloza (21 %) va amilopektin (79 %) miqdoriga ko'ra qovoq kraxmali olma, arpa va dukkakli ekinlar kraxmaliga yaqin.

Pektin moddalarning miqdori qovoqning turli navlarida turlicha. Ammo ularning monasaxarid tarkibi asosanga lakturon kislotadan, kam miqdorda arabinoza, ksiloza, galaktoza, glyukozadan iborat. Qovoqda kletchatkaning miqdori 0,6-1,36 % oralig'ida, gemitsellyulozaniki esa 3,4-11,2 % oralig'ida o'zgarib turadi. Qovoqda organik kislotalardan olma kislotasining miqdori katta. Qovoq mevalarida azot moddalari 1,6-2,4 %, ulardan 60-65 % oqsil azotiga to'g'ri keladi.

1.3. Adabiyotlar sharhi bo'yicha xulosalar

1. Yuqorida qayd qilingan ilmiy manbaalar ma'lumotlarini tahlil qilish oraqli shu ma'lum bo'ldiki, dunyo miqyosida boyitilgan non mahsulotlarini turlari ozuqaviy tarkibi xalq xo'jaligi mahsulotlari olish borasida qator ilmiy yondashuvlar bo'lgan.

2. Ilmiy ishim mavzusiga doir ilmiy adabiyotlar, avtoreferatlar va patent ma'lumotlari tahlili asosida shunday xulosaga kelindiki, boyitilgan bug'doy uni asosida olingan non mahsulotlari asosan bir nechta kimyoviy organoleptik tekshiruvlar orqali boyitilgan non mahsulotlarini olishga muvoffaq bo'lingan. Ammo bu ilmiy tadqiqot ishlari mahsulot tannarxi yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi, bu esa bozor sharoitida talab pasayishiga olib keladi.

3. Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda A vitamini bilan boyitish samarali rejimini ishlab chiqish hamda mazkur oziq-ovqat sanoati asosida yangi turdagi boyitilgan non mahsulotlari olish imkoniyatlari mavjud.

Dissertatsiya ishimizda tadqiqot materiali sifatida Xorazm viloyatida yetishtirilgan "Krasnodar", "Pamyat" va "Tayna" navli kuzgi bug'doy donlari namunalaridan foydalandik. Namuna olish va o'lchanma ajratish – GOST 13586.3 – 85 bo'yicha amalga oshiriladi. Analizlar massasi $(2,0 \pm 0,1)$ kg dan kam bo'lmagan o'rtacha namuna bo'yicha o'tkaziladi. Agar umumlashtirilgan namuna $(2,0 \pm 0,1)$ kg dan oshmasa, u holda uning o'zi o'rtacha namuna bo'ladi. Agar u $(2,0 \pm 0,1)$ kg dan ko'p bo'lsa, undan bo'lgich yoki kvadratlash metodi yordamida o'rtacha namuna olinadi. Kvadratlash metodi bilan o'rtacha namuna quyidagi tartibda ajratiladi: umumlashtirilgan namuna silliq yuzaga yoyiladi, yupqa kvadratli qavat shaklida. Shundan so'ng don qavati kovurasimon egilgan va bir tomoni tyokis yogo'ch planka yordamida tenglashtiriladi, ikki uchidan ushlab don namunasi o'rtasidan bo'linadi (diagonal bo'yicha). Qarama-qarshi uchburchaklar juftligidan biri olib qo'yiladi va qolgan ikkinchisi esa yana takroroy bo'linishga tayyorlanadi (umumiy uchburchakdagi donlar massasi $2,0 \pm 0,1$ kg ga etguncha davom ettiriladi) [88; 56 b].

2. TADQIQOT OBEKTI VA METODIKASI

Tadqiqot isharini bajarishda tavsiya qilgan standart usullardan, shuningdek bugungi kunda amaliyotda keng qo'llanilayotgan zamonaviy kimyoviy-biologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot ishonchliligi va hatolarni bartaraf qilish maqsadida o'rganilayotgan omillar turli darajada qilib olib borildi, bu esa matematik rejalashtirish usullari va shaxsiy eksperimentlarda olingan natijalarni qayta ishlash yo'li bilan amalga oshirildi [53; 132 b].

2.1. Xom-ashyolar va olingan mahsulotlarni fizik-kimyoviy, biologik analiz qilish uslublari.

Mahalliy xom ashyodan tarkibi boyitilgan non mahsulotlari olish uchun tarkibida A-vitaminni bilan boyitilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari qavoq, sabzi, sarimsoq va arpadiyon tanlab olinib tarkibi standart usullar bilan tekshirib ko'rildi. Ushbu sabzavotlar tarkibidagi inson oraganizmi uchun kerak bo'ladigan va non mahsulotlarini tayyorlashda sifatini o'zgartirmaydigan A-vitamini ajratib olish usullari o'ganib chiqildi. Adabiyotlarda o'rganilgan manbalarga asosan qavoq, sabzi qaynatib va sarimsoq maydalab non pishirish usuli hisoblanadi. Bu tajribalarni amalga kerak bo'ladigan laboratoriya jihozlar

Kerakli masalliqlar: Un, oshqovoq, sabzi, sarimsoqpiyoz, arpadiyon, shakar, achitqi, ulichiter poroshok, tuz, suv.

Kerakli jixoz va uskunalar: Analitik tarozi, lagan, non qolipi, termometr, non pishirish pechi, pichoq, taxtagach, elak, metall byuks, quritish shkafi, tigel qisqichlar, eksikator, juravlov asbobi, vtulka, btulka, banka, ko'lba, yog'och aralashtirgich, stakan, doka, pipetka

Kerakli reaktivlar: distillangan suv, 0,1 n NaOH (KOH), fenolftalein.

Qovoq mevasi tarkibiga uglevodlar, azotli va mineral birikmalar, organik kislotalar, vitaminlar kiruvchi 8-10 % quruq moddalarga ega. Quruq moddalarning

asosiy massasini (10 % gacha) qandlar tashkil qiladi. Qovoqning qandlari asosan saxarozadan, kamroq miqdorda glyukoza va fruktozadan iborat. Kraxmalning miqdori 0,7 dan 3,44 % gacha bo'lgan keng oraliqda o'zgarib turadi. Uning tarkibidagi amiloza (21 %) va amilopektin (79 %) miqdoriga ko'ra qovoq kraxmali olma, arpa va dukkakli ekinlar kraxmaliga yaqin.

Pektin moddalarning miqdori qovoqning turli navlarida turlicha. Ammo ularning monasaxarid tarkibi asosanga lakturon kislotadan, kam miqdorda arabinoza, ksiloza, galaktoza, glyukozadan iborat. Qovoqda kletchatkaning miqdori 0,6-1,36 % oralig'ida, gemitsellyulozaniki esa 3,4-11,2 % oralig'ida o'zgarib turadi. Qovoqda organik kislotalardan olma kislotasining miqdori katta. Qovoq mevalarida azot moddalari 1,6-2,4 %, ulardan 60-65 % oqsil azotiga to'g'ri keladi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, qovoq sabzavotlarida barcha almashinmaydigan aminokislotalar mavjud. Uning mineral moddalari asosan kalsiy, kaliy, natriy, magniydan, kam miqdorda fosfor, temir va boshqa elementlardan iborat. Qovoq beta-karotin vitaminining manbai bo'lib, shu bilan birga unda A vitamini, shuningdek, flavonoid polifenol antioksidantlar, jumladan, lyutein, ksantinlari mavjud. Shunday qilib qovoq va uni qayta ishlash mahsulotlari novvoylik mahsulotlar ishlab chiqarishda, texnologik jarayonning borishiga, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi istiqbolli sabzavot xom ashyolaridan hisoblanadi.

Boyitilgan non pishirish uchun avvalo laganga elakda elangan un 190gr, qaynatib sovutilgan qovoq 100gr, shakar 14,5gr, achitqi 2,5gr, ulichiter porashok 1gr, tuz 4,5gr aniqlikda o'lchab olib, aralashtirib turgan holda 210ml iliq suv solib xamir qordim va ustiga salafan paket, sochiq o'rab qo'ygan holda 30 daqiqada xamir achishini kutdim. Keyin esa achigan xamirni non qolipga teng yarim nisbatda solib ustiga salafan paket qo'ydim, 20-30 daqiqada qolipning yuza qismigacha ko'tarilishini kutdim. Oldindan 30 daqiqa davomida 120-130 C gacha qizib turgan non pishirish pechini 20 C gacha pasaytirgan

